



XALQ DEPUTATLARI KATTAQO'RG'ON TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2024-yil 22-iyul

VI-103-89-7-96-K/24

Kattaqo'rg'on tumani

Yoshlar ishlari tuman bo'limi boshlig'i L.Abduqahharovning "Tumanda yoshlar muammolarini hal etish, yoshlar bilan ishslash samaradorligi va natijadorligi tubdan yaxshilash chora-tadbirlari" to'g'risida" gi hisoboti;

Yoshlarga oid davlat siyosatining tumanda amalga oshirilishini ta'minlash, yoshlar tomonidan ko'tarilgan taklif va tashabbuslar, muammo va masalalarning mas'ullar tomonidan hal qilinishi va yuqorida bayon etilganlarga asosan hamda "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 24-moddalariga muvofiq VI chaqiriq xalq deputatlari tuman Kengashining 103-sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Yoshlar ishlari tuman bo'limi boshlig'i L.Abduqahharovning "Tumanda yoshlar muammolarini hal etish, yoshlar bilan ishslash samaradorligi va natijadorligi tubdan yaxshilash chora-tadbirlari" to'g'risida" gi hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Yoshlar ishlari tuman bo'limi (L.Abduqahharov), mahalladagi yoshlar yetakchilariga:

- yoshlar o'rtaida huquqbazarliklar va jinoyatchilik profilaktikasini, shu jumladan, huquqbazarliklarning maxsus profilaktikasiga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishda faol ishtirok etish;

- yoshlarni kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka keng jalb etish, zamonaviy kasb-hunarlar, raqamli iqtisodiyot ko'nikmalarini puxta egallashlari uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratish, ularni ish bilan ta'minlash jarayonlariga ko'maklashish vazifalari yuklatilsin.

3. Tuman hokimi o'rinnbosarlari (O.Shirinov, Q.Tog'ayev), Yoshlar ishlari tuman bo'limi (L.Abduqahharov), mahalladagi yoshlar yetakchilari bilan birgalikda yoshlar bandligini ta'minlash uchun ularga ajratilgan yer maydonlaridan samarali foydalanish choralarini ko'rish vazifasi yuklatilsin.

4. Xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati deputatlari tumandagi "Og'ir" toifadagi yoshlar bilan amalga oshirilayotgan ishlari natijalari bo'yicha o'rganish olib borib, tuman Kengashiga ma'lumot kiritish;

- og'ir toifadagi yoshlarga biriktirilgan mas'ul korxona va tashkilot rahbarlarining ushbu sohada olib borilayotgan ishlari o'rganilib, tuman Kengash sessiyasi muhokamasiga kiritish choralarini ko'rsin.

5. "Og'ir" toifadagi yoshlar bilan tashkil etilgan ishlar samarasiz tashkil etganligi yuzasidan tuman hokimi o'rinnbarlari (Q.Tog'ayev, Y.Mamatov), tuman Soliq

inspeksiyasi (N.Razzakov), tuman Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi (Sh.Sultonov), tuman Qishloq xo'jaligi bo'limi (A.Rizonov) ogohlantirilsin.

6. Tuman Kengashi kotibiyati (M.Teshayev)bir oy muddatda og'ir toifaga kiritilgan yoshlar bilan ishlash natijalari yuzasidan mas'ullar hisobotini eshitish tavsiya etilsin.

7. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilishni xalq deputatlari tuman Kengashining yoshlar siyosati, xotin-qizlar va gender tenglik masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (R.G'ulomov) hamda tuman hokimi o'rinnbosari O.Shirinov zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi



TESHAYEV MUXIDDIN
XOLIKULOVICH